

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TARMOQLAR IQTISODIYOTI KAFEDRASI

Qo‘l yozma huquqida

UDK: 603.4:6H2.15.7:338

NURIDDINOV KAMOLIDDIN FAXRIDDIN O‘G‘LI

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAHSULOTLARNI
SERTIFIKATLASHTIRISH TARTIBINI
TAKOMILLASHTIRISH

70310102– “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dots. Vaxobov A

Toshkent – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasida daslabk himoyadan o'tgan 22- sonli bayonnoma « 21 » 04 2023 y.

Ilmiy rahbar: dots. A.Vahobov


imzo

sana


Talaba: K.Nuriddinov


imzo

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “17” 05
№ 2/06 raqami bilan ro'yxatga olingan

“Himoyaga ruxsat etiladi”

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası
mudiri dots. I.Xotamov 

“3” “05” 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil “17” 05 soat “10⁰⁰” da bo'ladi

ANNOTATSIYA

Mazkur dissertatsiya ishida raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibini takomillashtirish masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bayoni keltirilgan. Tadqiqot ishini tadqiq qilish orqali sertifiklashtirish turli shakllarda bo'lib, uni tayyorlash va o'tkazish uchun ayrim vazifalarni bajarilish tartibi o'z navbatida mahsulot turiga, qonunlar majmuining milliy xususiyatlariga va boshqa qator omillarga bog'liq ekanligini tushundik.

Sertifikatlashtirishni tayyorlash va uni o'tkazishda asosiy ishlar qatoriga: sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni tanlash, mahsulotga sertifikatlashtirishda belgilanadigan talablarni, tavsiflarni tanlash, sertifikatlashtiriluvchi mahsulotni ishlab chiqarish sharoitlarini tekshirish, sinov laboratoriyalarini akkreditlash, sertifikatlashtirish sinovlarini o'tkazish, muvofiqlik sertifikatini berish va muvofiqlik belgisi bilan mahsulotni belgilash (tamg'alash)lar kiradi.

Magistrlik dissertatsiya ishida quyidagi asosiy masalalar hal etiladi: mahsulot sifatini ta'minlash, mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlashda sifatni joriy etishning nazariy va uslubiy asoslari, sifat standartlaridan foydalanishni takomillashtirish masalalari ko'rilgan. Tadqiqotlar jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalarning amaliyotda qo'llanilishi aynan, sanoat korxonalarida mahsulot sifatini ta'minlash asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Kalit so'zlar: Mahsulotlar sifati, Standartlashtirish, Sertifikatlashtirish, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti.

ANNOTATION

In this dissertation, a report on the research conducted on "Issues of improving the product certification procedure in the digital economy" is presented. By studying the research work, we understood that certification has different forms, the order of performing certain tasks for its preparation and transfer depends on the type of product, national characteristics of the set of laws and a number of other factors.

Among the main tasks in the preparation and conducting of the certification are: selection of the product to be certified, selection of requirements and descriptions for the product certification, verification of production conditions of the product to be certified, accreditation of testing laboratories, conducting certification tests, issuing a certificate of conformity and marking the product with a mark of conformity.

In this dissertation the following tasks has been accomplished: theoretical and methodological foundations for the introduction of quality standards while ensuring product competitiveness, indicators of the implementation of standards, the issues of improving the use of quality standards. The use in practice of scientific proposals and practical recommendations developed in the process of research can help improve the use of quality standards in the activities of the industry company.

Key words: Product quality, standardization, certification, International organization for standardization.

MUNDARIJA

I BOB. KIRISH.....	8
1.1 Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	8
1.2 Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	8
1.3 Tadqiqot ishining asosiy muommolari va savollari.....	9
1.4 Tadqiqot obekti va predmeti.....	10
1.5 Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	10
1.6 Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	10
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	12
2.1 Adabiy manbalarda keltirilgan tadqiqotlar natijalari.....	12
2.2 Tadqiqot gipotezasi.....	21
III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI.....	30
3.1 Ma'lumotlar manbalari.....	30
3.2 Tadqiqot dizayni.....	30
3.3 Tadqiqotda qo'llanilgan uslublar.....	31
3.4 Tadqiqotni o'tkazishda zarur sharoitlar.....	31
3.5 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi...	31
3.6 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	42
IV BOB. TAXLIL NATIJALARI.....	47
4.1. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sertifikatlashtirish talablari.....	47
4.2. Sertifikatlashtirish natijalarini rasmiylashtirish.....	53
4.3. Sertifikatlashtirish takomillashtirish tizimlari va natijalari.....	65
V BOB. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
5.1 Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy yangiligi va natijalari	70
5.2 Tadqiqot natijasidagi keltirilgan asosiy tavsiya va takliflar.....	71
5.3 Kelgusi tadqiqotchilar uchun takliflar.....	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	75

I. KIRISH

1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategiyasida"¹ belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlilini o'rgangan holatda, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish kabi masalalari belgilangan². Bu mavzuning dolzarbligini bildiradi.

Raqobatbardoshlikni ta'minlashda XX asrning 80 – yillarida sifatga talablar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Jahon bozorida mahsulotlarni xarid qilayotgan iste'molchilarning 80% dan ortig'i sifatni narxdan ustun qo'ymoqda. Ma'lumotlar sifat harajatlarning umumiy ishlab chiqarish harajatlarning 15 – 25% dan kam bo'lmagan qismini tashkil qilganini ko'rsatadi. Mazkur sertifikat mahsulot sifatining Xalqaro standartlashtirish tashkiloti – ISO standartlaridagi talablarga javob berishini tasdiqlaydi. Boshqa sertifikatlashtirilmagan mahsulotlarning ikki barobar arzonga sotilishi shart qilib qo'yilgan. Sifatga bog'liq tashkiliy – iqtisodiy va texnik muammolar allaqachon tadqiqot predmetiga, ularni hal qilish yo'llari fan tarmog'iga aylangan³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridan shu sohada ilmiy izlanishlar olib borayotgan bir guruh olimlardan L.E.Basovskiy, B.B.Protas'ev, S.D.Il'enkova, N.D.Il'enkova, I.I.Mazur, V.D.Shapiro, Sh.Sh.Magomedov, G.E.Bespalova V.V.Okrepilovlar ilmiy ishlarida va darsliklarida bayon etganlar.

Mamlakatimizda sohaning yetuk olimlaridan S.S.G'ulomov, B.J.Safarov, Sh.M.Yuldasheva, Sh.J.Ergashxo'jaevalar va boshqalar o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar va qo'shib kelmoldalar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

² <https://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraqiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>

³ "Sifat menejmenti" R.ISMATOV, O.AHMEDOV Namangan